

## Simpozium: yangi o'zbekiston – yangi yoshlar

Shu yilning 5-6-noyabr kunlari oralig'ida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster Universitetida «Yangi O'zbekiston – Yangi Yoshlar» nomli Simpozium o'tkazilmoqda. Bu Simpoziumga asosan, barcha Oliy ta'lim muassasalarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchilari va Toshkent shahridagi OTM muassasalarining yoshlar masalalari bo'yicha prorektorlari ishtirok etmoqda. Ular orasida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti xotin – qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashi raisi Z.Ismailova ham ishtirok etmoqda. Simpoziumda xotin-qizlar masalalari, ularga yurtimiz tomonidan yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar, talaba qizlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar va gender tengligi, ayniqsa, talaba-qizlarning ta'lim-tarbiyasi masalalari so'z etildi va ko'rib chiqilmoqda.



Simpoziumning kirish va qutlov so'zlari Toshkent Xalqaro Vestminster Universiteti rektori -Mirqosimov Baxrom Ravshanovich, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari – Karimov Komiljon Xamidovich va Oliy majlis senati huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi – Muhammadyunosova Mohistora Muhammadilhomovnalarga berildi. Simpoziumning keyingi jarayonlari ertaga 6-noyabr kuni davom etadi.



**TIQXMMI matbuot xizmati**